

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 541 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
Turayeva Gulizahro	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
Safarova Nasiba Gulmurod qizi	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
Даниярова Улбосын Куатбаевна	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
Soliyev Azizbek Kamoldinovich	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
Голышева Елена Вячеславовна	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
Уринов Адхамжон Акбарович	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
A.Xakimov, X.Xakimov	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
Xusanova Maloxat Mengnorovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
Saidova Kamola Xoshimovna	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARNING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI.....	206
Azizova Zilola Lochinovna	
KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	212
Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ	219
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI	227
Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	233
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
KON-METALLURGIYA KORXONALARINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA KPINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	237
Ergashov Botirjon Ergashovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	245
Ahmadjanov Ilyosbek	
ACCELERATING SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN RURAL AREAS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	250
O.Q. Xudayberdiyeva, Z.B. Negmatullayeva	
ISSIQXONALARDAN FOYDALANISHNING OZIY-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI BO'YICHA MUAMMONI ASOSLASH VA UNING MILLIY MANFAATLARGA ALOQADORLIGINI ANIQLASH.....	256
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI	260
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING JAHON TAJRIBASI: MUAMMO VA ISTIQBOL	264
Mamadaliyev Akmaljon	
ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ НАЛОГОВ В НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ.....	269
Зайналов Джахонгир Расулович	
FARG'ONA VODIYSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	274
Murodxiyeva Feruza Majidovna	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI.....	280
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN: SOCIO-ECONOMIC TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS	285
Razakova Barno Sayfiyeva	
U-NET BASED POLYP SEGMENTATION ON KVASIR-SEG DATASET: PERFORMANCE EVALUATION AND COMPARISON WITH STATE-OF-THE-ART METHODS	289
Mukhriddin Arabboev, Shohruh Begmatov, Sukhrob Bobojanov	



IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOHALARI RIVOJLANISHIDA SUN'IIY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI	300
Davletov Islambek Xalikovich, Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li	
IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI	304
Karimova Iroda Abdusattarovna	
"MENING MAKTABIM" LOYIHASINI OMMALASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	311
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzayeva	
ISSUES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE EDUCATION MARKET	320
Inomiddin Imomov	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ОЦЕНКИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С УЧЕТОМ СТЕПЕНИ НОВИЗНЫ И ЭФФЕКТОВ	324
Алиева Эльнара Аметовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ В СИСТЕМУ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ	331
Назарова Гулчехра Нурмуханбетовна	
ECONOMIC GROWTH: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECT	336
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
AGROKLASTERDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR MEKANIZMINING BUGUNGI HOLATI	342
Xaydarov Sardor Komil o'g'li	
SIMSIZ ALOQA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TEMIR YO'L STANSIYALARIDA POYEZDLAR HARAKATINI TASHKIL ETISH	350
Jonikulov Egamberdi Shavkat o'g'li	
GENDER SIYOSATI VA DEMOGRAFIK O'SISHNING INSON KAPITALIGA TA'SIRI	357
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
СОСТОЯНИЕ ВИТАМИННО-МИНЕРАЛЬНОГО ОБМЕНА (ВИТАМИН D, КАЛЬЦИЙ, МАГНИЙ, ФОСФОР) У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА С ОСТРОЙ ПНЕВМОНИЕЙ НА ФОНЕ ВЕГЕТАТИВНЫХ ДИСФУНКЦИЙ	364
Абдурахмонов Жасур Нематович, Шарипова Олия Аскаровна, Бахронов Шерзод Самиевич	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILISHI	373
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ АО ХУДУДГАЗТАЪМИНОТ	377
Хусанов Дурбек Нишанович	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTIDA NAZORAT GABARIT QURILMALARINING ZAMONAVIY HOLATI, TAHLILI VA HARAKAT TAKRIBI GABARITLARINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH	384
Xidirov Erkin Irgashovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA SAMARALI TAQSIMLASHDA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	391
Amanbaev Amanali Ortazbaevich	
GLOBAL DARAJADA FAOLIYAT YURITADIGAN BRONLASH TIZIMLARINING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI	396
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA INFRATUZILMA LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI	403
Akmal Shodiyev	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KORXONALARDA LIZING MUNOSABATLARI HISOBİ	408
Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	



O'TKIR BRONXOLIT BILAN KASALLANGAN BOLALARDA KATAMNEZNING EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRIDA UZIGA XOS KECHISHI.....	412
Azimova Kamola Talatovna	
THEORETICAL ASPECTS OF STUDYING CONCEPTS RELATED TO YOUTH TOURISM	416
Norboyev Allayor Ismoilovich, Mansurova Zebuniso Abdurashidovna	
THE ESSENTIAL STRATEGIES WAYS OF SERICULTURE INDUSTRY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	420
Khojimatov Ravshanbek Rasuljonovich	
BLENDED LEARNING PLATFORMASI KANSEPSIYASI, ARXITEKTURASI VA FUNKSIONAL TUZILMASI.....	425
Qobulova Madina Tuxbatillo qizi, Mirzaaxmedov Muxammadbobur Karimberdiyevich	
ASALARICHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA FAROVONLIGIGA TA'SIRI: IQTISODIY TAHLIL VA EKONOMETRIK BAHOLASH	430
Kuanishbay Berdimuratov	
MARKETING EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHGA OID XORIJIY YONDASHUVLAR TAHLILI	434
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
УЧЕТНО-АНАЛИТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ОРГАНИЗАЦИИ	443
Бабахонов Бабуржон Шухрат угли	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA SOLIQ IMTIYOZLARINI QO'LLASH MASALALARI.....	449
Ibroximov Muxammadjon Abdullajanovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA LOGISTIKA BOSHQARUVINING RAQAMLI MODEL VA UNING SAMARADORLIGI	453
Olimova Bahora Shuxratovna	
СУЩНОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	463
Муминходжаева Дилноза Рамизовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И АНАЛИТИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ	468
Дурманов Акмал Шаймарданович	
УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ СОЦИАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РЕФОРМ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ЗДРАВООХРАНЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	477
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI.....	483
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA-INNOVASION JARAYONLARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	489
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
AGROKLAFTERLARDA ICHKI SOTISH JARAYONIDA TRANSFERT BAHOLARNI BELGILASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	495
Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich	
INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MICE TOURISM AND ITS ADAPTATION TO THE CONDITIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	501
Ilkhomova Gulnoza Zayniddin kizi	
MUHANDISLIK KONSTRUKSIYALARIDA MURAKKAB SIRT LARNI CHIZMA GEOMETRIYA YORDAMIDA TAHLIL QILISH.....	507
Qutbtiddinov Hikmatillo Qudratillo o'g'li	
TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI	512
Umarova Munira Muxitdinovna	



JINDA ARRALI SILINDR TISHLARIDAN TOLANI AJRATISH JARAYONINI HAVO OQIMI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRUVCHI ENERGIYA TEJAMKOR QURILMANI MODELLASHTIRISH.....	516
Mirzakarimov Mirsharofiddin Mirzaabdurahimovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI TOMONIDAN ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLARNI XORIJGA EKSPORT QILISH MEXANIZMLARI	524
Matkarimov Anvar Tajimatovich	
MUHANDISLIK KONSTRUKSIYALARIDA MURAKKAB SIRTLARNI CHIZMA GEOMETRIYA YORDAMIDA TAHLIL QILISH	528
Qutbtiddinov Hikmatillo Qudratillo o'g'li	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	533
Ismailov Bobir Salomovich	



SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ismailov Bobir Salomovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada soliq organlari tomonidan tekshirish va soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilish amaliyotini takomillashtirish orqali ularning mumkin bo'lgan soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash, adolatli soliqqa tortishni ta'minlash va pirovardida soliq tizimining umumiy samaradorligiga hissa qo'shish imkoniyatlarini oshirishi mumkinligi organilgan va xulosalar shakllantirilgan. Maqolada xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitida tatbiq etishning afzalliklari va muammolari yoritilib, milliy soliq siyosatini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, tahlila-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Abstract. This article examines the potential for improving the practices of tax authorities in auditing and monitoring taxpayers' activities to identify possible cases of tax evasion, ensure fair taxation, and ultimately enhance the overall efficiency of the tax system. The advantages and challenges of applying foreign experience in the context of Uzbekistan are analyzed, and recommendations for improving national tax policy are proposed.

Keywords: tax revenues, risk analysis, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Аннотация. В статье исследованы возможности повышения эффективности практики проверок налоговыми органами и контроля деятельности налогоплательщиков для выявления возможных случаев уклонения от уплаты налогов, обеспечения справедливого налогообложения и, в конечном итоге, повышения общей эффективности налоговой системы. Рассмотрены преимущества и проблемы применения зарубежного опыта в условиях Узбекистана, а также предложены рекомендации по совершенствованию национальной налоговой политики.

Ключевые слова: налоговые поступления, анализ рисков, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, ставка налога.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq tizimining samarali faoliyati soliq to'lovchilar faoliyati ustidan amalga oshiriladigan soliq nazoratining mukammal tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir. Soliq nazorati davlat moliya siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u byudjet daromadlarining barqarorligini ta'minlash, soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish hamda soliq intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazorati orqali tartibga solishning nazariy asoslarini chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda iqtisodiyotni raqamlashtirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish hamda riskka asoslangan nazorat tizimlarini joriy etish soliq nazoratining mazmuni va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bois, soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazorati orqali tartibga solishning nazariy asoslarini o'rganish orqali mazkur jarayonning mohiyati, vazifalari va iqtisodiy ahamiyatini ochib berish, shuningdek, uning samaradorligini oshirish yo'llarini ilmiy jihatdan asoslash muhim hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazorati orqali tartibga solish masalalari iqtisodiy nazariya, moliya va soliq huquqi sohalarida keng o'rganilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq nazoratining mohiyati, shakllari va usullariga nisbatan turli ilmiy yondashuvlar mavjud.

Xorijiy olimlar J. Stiglis, R. Masgreyv va P. Samuelson soliq nazoratini davlat moliyaviy mexanizmining ajralmas qismi sifatida talqin qilib, uning asosiy vazifasi soliq majburiyatlarining to'liq va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning ishlarida soliq nazorati soliq siyosatining samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida baholanadi [1].

Shuningdek, M. Olson, A. Smit va F. Shnayder tadqiqotlarida soliq nazorati va soliq to'lovchilarning xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratilgan. Ularning fikricha, samarali soliq nazorati soliqdan qochish holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

MDH davlatlari olimlari A.G. Gryaznova, L.I. Goncharenko, I.A. Mayburov va T.F. Yutkina ishlarida soliq nazoratining nazariy-metodologik asoslari, uning shakl va usullari, shuningdek, soliq tekshiruvlarini tashkil etish masalalari chuqur yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda soliq nazorati davlat byudjeti daromadlarini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri sifatida qaraladi [3].

O'zbekistonlik olimlar Q. Abdurahmonov, A. Vahobov, Sh. Mustafoqulov, B. Toshmatov va boshqalarning ilmiy ishlarida milliy soliq tizimida soliq nazoratini takomillashtirish, soliq ma'murchiligini kuchaytirish va soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarning institutsional asoslari tahlil qilingan. Ayniqsa, ular soliq nazoratini raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarini joriy etish hamda riskka asoslangan yondashuvlarni qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratganlar [4].

S.M. Olennikovning fikricha, soliqdan qochish va soliqlarni optimallashtirish soliq to'lovchining rejalashtirgan hatti-harakatlari hisoblanadi [5]. A. Makoveskiy va Ye.A. Zareskaya soliqdan qochishning eng ko'p tarqalgan qonuniy usullaridan biri bo'lgan soliqlarni optimallashtirishni ta'riflab, uni shunday tushuntiradi: "Soliqlarni optimallashtirishda soliq to'lovchining maqsadli qonuniy harakatlari, jumladan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha imtiyozlardan to'liq foydalanish, soliq imtiyozlari va boshqa qonuniy imkoniyatlar orqali soliq majburiyatlarini kamaytirish odatiy holatdir. Boshqacha aytganda, bu soliq va jinoyat qonunchiligi normalarini buzmaganda, qonuniy asoslarda soliq to'lovlari minimal darajaga tushiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini tashkil etishdir" [6].

Rossiyalik olim L. Aleksandrova tadqiqotlarida soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'lashdan bo'yin tovlashning ommaviyligi va soliq jinoyatlarining aniqlanishdagi murakkabliklarga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, bu jarayonning samarali vositalarini ishlab chiqish va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish zarur [7].

A.R. Abdullina soliqdan qochish holatlarini kamaytirishda muammolarni, jumladan, buxgalteriya hujjatlarini tahlil qilish qiyinchiliklari, yangi tashkil etilgan korxonalarni monitoring qilishda yetarli malaka yetishmasligi va qonun hujjatlarining takomillashmaganligini ta'kidlaydi [8].

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, soliq nazorati bo'yicha nazariy qarashlar yetarlicha shakllangan bo'lsa-da, soliq to'lovchilar faoliyatini baholashda zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan nazorat mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligini kompleks o'rganish, shuningdek, milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda ilmiy xulosalar ishlab chiqish masalalari hali ham dolzarb hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq nazorati soliq ma'muriyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi va davlat moliyaviy nazoratining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Kengroq soliq tizimining bir qismi sifatida u muvofiqlik va samaradorlikni ta'minlaydi. Soliqlarning ichki dinamikasi, xususan, ularning ekvivalent emasligi nazariy jihatdan tadqiq qilinadi va soliq majburiyatining o'rnatilgan nazariy va amaliy asoslari soliq nazoratida davlatning ishtirokining zarurligini ko'rsatadi.

Soliqlarning ekvivalentlik xususiyati jismoniy yoki yuridik shaxslarning to'lgan soliqlariga mutanosib ijtimoiy xizmatlar miqdorining bo'lmashligini anglatadi; boshqalar esa soliq to'lamasdan yoki minimal badal bilan ko'proq xizmatlardan foyda olishlari mumkin. Bunday nomutanosiblik sharoitida soliq to'lovchilar, ham yuridik, ham jismoniy shaxslar, soliq to'lashdan bo'yin tovlagan taqdirda davlat xizmatlaridan to'liq foydalanish imkoniyatini sezadi. Natijada, soliq to'lashdan bo'yin tovlash motivlari kuchayadi.

Shuningdek, soliq majburiyligi va soliq yukining ortib borayotgani qonun hujjatlariga rioya qiluvchi soliq to'lovchilarga qo'shimcha bosim o'tkazadi, shu bilan birga, rioya qilishga moyil bo'lmaganlarni soliq majburiyatlarini minimal darajaga tushirish yoki to'lashdan butunlay bo'yin tovlash yo'llarini izlashga undaydi. Shu sababli, soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazorati orqali tartibga solish zarurati tug'iladi.


Darhaqiqat, soliq nazoratini tashkil etish davlat soliq xizmati organlari uchun tashkiliy va iqtisodiy jihatdan qo'shimcha vazifa hisoblanadi, mazmunan olganda davlat sarf-xarajatlari jihatidan bu ba'zan iqtisodiy nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi. Biroq yuqorida qayd etilgan holatlar mavjud bo'lsa-da, davlat faoliyatida soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazorati orqali muvofiqlashtirish zarur.



1.-rasm. Soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazorat qilishini yuzaga keltiruvchi asosiy omillar

Yuqoridagi rasmda ko'rinib turibdiki, soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazorati qilinishini yuzaga keltiruvchi asosiy omillar qatoriga soliq to'lovchilarning ijtimoiy-iqtisodiy xulq-atvori, ixtiyoriy ravishda soliq to'lash rejimining yetarli emasligi hamda soliq to'lovchilarda egoistik xususiyatlar doimiy saqlanib qolinishini kiritish mumkin. Soliq to'lovchilarning ijtimoiy-iqtisodiy xulq-atvori shunday omilki, yuridik shaxs sifatida soliq to'lovchi bo'lsa, bu yerda korporativ soliq madaniyatining darajasi muhim rol o'ynaydi.

Soliqlarni ixtiyoriy ravishda to'lash jarayoni mavjud bo'ladi, ammo, budget daromadlari va davlatning moliyaviy ehtiyojlari jihatidan bu yetarli bo'lmaydi, demak majburiylik soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazoratini o'rnatishni taqozo etadi, aks, holda ixtiyoriy to'langan soliqlar yetarli emas. Egoistik manfaatlar (o'z manfaatidan boshqalar, jumladan, davlat manfaatlaridan ustun qo'yish) soliq majburiyatlarining yetarli va to'liq bajarilishiga to'sqinlik qiladi. Bu esa, agar soliq nazorati tashkil qilinmasa va u to'g'ri amalga oshirilmasa, jamiyat (budget) manfaatlariga putur yetkazilishi mumkin va tabiiy deb xulosa qilishga olib keladi.



2.-rasm. Davlat nazoratining shakllari

Davlat nazorati asosan uning turli funksiyalari bilan shakllanadi, soliq nazorati esa moliyaviy nazoratning hal qiluvchi jihati hisoblanadi. Byudjet nazorati asosan davlat byudjetidan ajratilgan mablag'larning to'g'ri o'zlashtirilishini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, soliq nazorati kutilayotgan soliq tushumlarining belgilangan miqdorda undirilishi va davlat byudjetiga tushishini ta'minlashga qaratiladi.

Shu bois, soliq nazorati ikkita asosiy yo'nalishda faoliyat yuritadi:

1. Soliq to'lovchilar faoliyatini monitoring qilish.
2. Soliq organlarining soliq tushumlarining to'g'ri undirilishi va byudjetga taqsimlanishini ta'minlash bo'yicha nazorat qilish.

Soliq nazoratiga bunday ikki tomonlama yondashuv uning faoliyatining asosini tashkil qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, soliq to'lovchilar monitoringi faqat soliq organlari bilan cheklanmaydi. Soliq nazorati davlat va jamiyat nazoratini o'z ichiga oluvchi kengroq jarayon bo'lib, manfaatdor tomonlar va organlarning keng doirasini qamrab oladi. Ushbu kompleks tizim soliq nazorati obyektlari va subyektlarini har tomonlama baholash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, soliq nazorati tuzilishini diagramma orqali tasvirlash ilmiy jihatdan aniqroq bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan rasmda ko'rinib turibdiki, soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda obyekt va subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasidagi moliyaviy

qonunchilikka ko'ra, soliq to'lovchilar faoliyatida soliq nazoratini amalga oshirish bir nechta davlat organlari vakolatlariga kiradi.


O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq:

- Soliq, bojxona va boshqa vakolatli organlar, prokuratura organlari hamda tergov organlari soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishlari va o'zlari olib borayotgan soliq tekshiruvlari bo'yicha bir-birini xabardor qiladi.

- Mazkur organlar o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida zarur axborot almashinuvini amalga oshiradi.

- Bojxona xizmati organlari yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarning O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tilishi munosabati bilan ushbu tovarlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan soliqlarga nisbatan soliq nazoratini amalga oshiradi.

- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi o'z vakolatlari doirasida byudjet tizimi bo'yicha tushumlarning to'liqligini, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarning bajarilishini o'rganadi va nazorat qiladi, bu esa bilvosita soliq to'lovchilarning soliqlarni o'z vaqtida va to'g'ri to'lashini ta'minlashni anglatadi.




3-rasm. Soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazorat qilishning obyekti va subyektlari



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi bevosita bo'lmasa-da, o'z vakolatlari va funksiyalari asosida byudjet va soliq to'lash majburiyati yuklatilgan davlat korxonalarida "mehnatga haq to'lash bo'yicha belgilangan razryadlar, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqi va unga qo'shimchalar hamda boshqa to'lovlar miqdorlariga rioya etilishini o'rganish orqali ortiqcha to'lovlarning oldini olish, byudjet tashkilotlarida ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarning to'g'ri hisoblanishini nazorat qilish" yuzasidan nazorat olib boradi.

Ushbu faoliyat natijasida, mantiqiy va nazariy jihatdan qaralganda, soliq nazorati jarayoni ham parallel ravishda amalga oshadi va soliq tushumlarining to'g'ri undirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.



4-rasm. Soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazorat qilishning institutsional asoslari

Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va munosabatlar o'zining institutsional asoslariga ega bo'ladi. Yuqorida keltirilgan 4-rasmda soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazorati qilishning institutsional asoslari, soliq to'lovchilar faoliyatini soliqqa tortish jihatidan nazorat tartibidagi jarayonlarni taqozo etishini ko'rsatadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ixtiyoriy asosda to'langan soliqlar hajmi bilan davlatning moliyaviy mablag'larga bo'lgan minimal talabi o'rtasidagi nisbat doim katta bo'ladi. Bu, soliq to'lovchilarning individual manfaatlarining jamiyat manfaatlaridan doimiy yuqori bo'lishi bilan izohlanadi va u parallel ravishda mavjud bo'ladi. Shu jarayonning doimiy saqlanib qolishi soliq to'lovchilarda soliq nazoratini o'tkazishning iqtisodiy va ijtimoiy-sotsial jihatdan zarurligini ta'minlaydi.

Har qaysi iqtisodiy jarayonlar tizimli ravishda mavjud bo'lib, uning o'ziga xos elementlarning o'zaro bog'liqligida yuz beradi. Soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazorati qilishning elementlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

1. Soliq monitoringining dastlabki bosqichlari – soliq to'lovchining ma'lum ma'muriy-hududiy birlik doirasidagi majburiyatlari bo'yicha soliqlar va yig'implarni hisoblash va to'lash muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayonga Davlat soliq qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan maxsus dasturiy ta'minot yordam beradi.

2. Soliq to'lovchining shaxsiy kabineti – byudjet tizimiga to'langan barcha to'lovlarni, jumladan qarz summalarini, har qanday jarima va sanksiyalarni elektron tarzda kuzatib boruvchi hujjatdir. Shu kabinet orqali nafaqat byudjet tizimiga soliq va yig'implar, balki fuqarolarning shaxsiy jamg'armalariga to'langan majburiy pensiya badallari ham hisobga olinadi.

3. Axborot va hisob tizimi – bu tizim soliq organlarining turli funksional bo'linmalari o'rtasida samarali aloqa va axborot almashinuvini ta'minlaydi. Bu esa dastlabki soliq nazorati uchun asos bo'lib xizmat qiladi va barcha tomonlarga nazorat imkonini beradi:

- o soliq hisoboti va tekshiruvlar natijasi bo'yicha hisoblangan summalar;
- o to'langan (undirilgan) summalar;
- o soliq qarzi va (yoki) ortiqcha to'lov summalar;
- o qaytarilgan yoki xatolik bilan to'langan summalar;

- o to'lov muddati o'zgartirilgan soliqlar va yig'imlar summolari;
- o hisobdan chiqarilgan va alohida hisob yuritiladigan summalar;
- o hisoblangan penya va boshqa moliyaviy sanksiyalar.

4. Nazorat usullari – soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda soliq organlari turli xil usullardan foydalanadi. Bir tomondan, bu ularning soliq qonunchiligiga qancha amal qilayotganligini nazorat qilish; boshqa tomondan, davlat byudjetiga tushum kelib tushmaslik xavfini kamaytirish maqsadida uchinchi tomon – iqtisodiy hamkor tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini bilvosita nazorat qilish hisoblanadi.

Nazariy jihatdan soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilish bir necha shakllarda mavjud bo'lib, ular:

- soliq qonunchiligiga rioya qilinishini nazorat qilish;
- soliqdan qochish holatlarini aniqlash;
- soliqlar bilan bog'liq hisob yuritish holatini nazorat qilish;
- soliq ob'ekti haqida xabardorlikni nazorat qilish;
- soliq to'lovchilarning iqtisodiy hamkorlari bilan bog'liq munosabatlari orqali byudjet yo'qotishlarini nazorat qilish shakllarida amalga oshiriladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda jamiyatchilik nazorati ham alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda uning rivojlanishiga keng e'tibor berilmoqda. 2022-yil 1-yanvardan soliq ma'muriyatchiligi takomillashtirildi, "Cashback" tizimi joriy etildi va jamiyatchilik nazorati faollashgani tufayli tushumlarga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

"Cashback" va "Soliq hamkor" nazorati onlayn kassa mashinalari orqali aylanmalarni kuzatish imkonini berib, avvalgi yilga nisbatan o'rtacha 1,2-1,7 barobarga oshirish imkonini yaratdi. Jamiyatchilik nazorati bo'limida bu tizimlar ko'rsatkichlarini har bir tuman (shahar) darajasida kuzatish, huquqbuzarliklar yuzasidan tekshiruv o'tkazilgan sub'ektlarni xaritada ko'rsatish imkonini taqdim etadi.

Soliq qo'mitasi huzurida jamiyatchilik kengashi tashkil etilgan bo'lib, kengash tarkibiga soha mutaxassislari va biznes vakillari jalb qilingan. Soliq ma'muriyatchiligi bo'yicha tatbiq etilayotgan o'zgarishlarni amaliyotga joriy etish yoki qonunchilikka kiritish uchun berilayotgan takliflar kengash yig'ilishlarida muhokama qilinadi.

Soliq ma'muriyatchiligining raqamli transformatsiyasi jarayonidagi yangiliklar va ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlari aholiga va tadbirkorlik sub'ektlariga tushuntiriladi, shu jumladan ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'i orqali keng targ'iboti tizimli ravishda tashkil etiladi.

Nazariy va amaliy tahlillardan umumiy xulosa shuki, soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilish ijtimoiy-iqtisodiy zaruratsidir. Shu bilan birga, soliq nazoratini samarali tashkil etish, budjet manfaatlari va soliq to'lovchilar manfaatlarini muvofiqlashtirish, nozik holatlarni keng tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi. Kelgusida soliq tizimida soliq nazoratini amalga oshirishda soliq to'lovchilarning kontragentlari bilan bog'liq munosabatlarini tahlil qilish va tadqiq etish ham muhim va murakkab vazifa bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda riskka asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish, raqamli soliq nazorati vositalarini rivojlantirish, shuningdek, soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish orqali soliq nazoratining samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Bunday yondashuv soliq tekshiruvlarining samaradorligini oshirish, byudjet tushumlarini vaqtida va to'liq ta'minlash hamda soliq to'lovchilarning majburiyatlarini ijobiy rag'batlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli vositalar va axborot almashinuvi soliq nazoratini tezkor, shaffof va kamroq resurs sarflaydigan jarayon sifatida tashkil etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Musgrave R.A., & Musgrave P.B. (1989). Public Finance in Theory and Practice. New York: McGraw-Hill.
2. Stiglitz J.E. (2000). Economics of the Public Sector. New York: W.W. Norton & Company.
3. Samuelson P.A., & Nordhaus W.D. (2010). Economics. New York: McGraw-Hill Education.
4. Schneider F., & Enste D.H. (2002). The Shadow Economy: An International Survey. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Ismoilov B.S. (2024). Soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda kontragentlarni tekshirish amaliyotini takomillashtirish (PhD dissertatsiya avtoreferati). Toshkent, 11 b.
6. Mayburov I.A. (2020). Nalogi i nalogoblozhenie: uchebnik. Moskva: Yurayt.
7. Goncharenko L.I. (2018). Nalogovyy kontrol: teoriya i praktika. Moskva: Finansy i statistika.
8. Yutkina T.F. (2019). Nalogi i nalogoblozhenie. Moskva: INFRA-M.
9. Vakhobov A.V. (2019). Soliqlar va soliqlarga tortish. Toshkent: Iqtisod-Molya.
10. Abdurahmonov Q.X. (2020). Davlat moliyasi va soliq siyosati. Toshkent: Fan va texnologiya.
11. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. (2020). Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi, 640 b.
12. Оленников С.М. (2017). Квалификация уклонения от уплаты налогов по объективным признакам состава преступления. Юридическая ответственность и ответственность юристов, 4, 37-42.



13. Маковеский С.А., & Зареская Е.А. (2017). Уклонение от уплаты налогов: особенности преступления и наказания. Вестник института экономических исследований, 3(7), 156.
14. Коттке, К. (1998). "Грязные" деньги – что это такое? Справочник по налоговому законодательству в области "грязных" денег. Москва.
15. Александрова, Л.И. (2017). Основные особенности и проблемы выявления уклонений от уплаты налогов. Актуальные проблемы правового регулирования, 2.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100